Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich	



Murabbiylik konsepsiyasi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	837
Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
Chet elda bankrotlik ehtimolini baholash modellari.....	842
Nasiriddinov Bahouddin Nuriddinovich	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning amaliy holati va dinamikasi	847
Irgasheva Nigora Akbarovna	
Jismoniy shaxslar daromadlari tarkibi, va ularni soliqqa tortish masalalari.....	854
Ibragimov Zafar Ismailovich	
Tijorat banklari tomonidan kreditlash amaliyotining rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari.....	861
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KREDITLASH AMALIYOTINING RIVOJLANGAN XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Kaxxarov Ulug‘bek Xalmatovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi., PhD

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda tijorat banklarining kreditlash mexanizmi bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalari hamda ularning O‘zbekiston bank tizimi amaliyotiga moslashtirilgan holda joriy etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Kredit portfelini shakllantirish, risklarni aniqlash va baholash, mijozlar kreditga layoqatligini aniqlashda xalqaro standartlarga asoslangan yondashuvlar, jumladan, sun‘iy intellekt asosidagi scoring tizimlari, big data tahlil vositalari, kreditlar monitoringi bo‘yicha avtomatlashtirilgan platformalar va real vaqt rejimidagi nazorat mexanizmlari o‘rganilgan. Xususan, AQSh, Germaniya, Singapur kabi mamlakatlar banklarining kredit siyosatidagi tizimli yondashuvlar va raqamli infratuzilmalari O‘zbekiston tijorat banklari uchun amaliy ahamiyatga ega ekani asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston bank sektorida xorijiy tajriba asosida kreditlash mexanizmini takomillashtirish, kredit risklarini kamaytirish, shaffoflikni oshirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash imkoniyatlari mavjudligi aniqlangan. Mazkur ish milliy bank amaliyotini modernizatsiya qilishda metodik asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, kreditlash mexanizmi, xorijiy tajriba, O‘zbekiston amaliyoti, kredit riski, scoring tizimi, raqamli texnologiyalar, moliyaviy barqarorlik, big data, kredit monitoringi.

Abstract: This research paper explores advanced international practices in the credit mechanisms of commercial banks and examines the possibilities of their adaptation and implementation within the banking system of Uzbekistan. Special emphasis is placed on credit risk management, client creditworthiness assessment, credit portfolio formation, and real-time monitoring using modern digital tools such as AI-based scoring systems, big data analytics, and automated credit control platforms. By analyzing the experiences of countries such as the United States, Germany, and Singapore, the study substantiates the importance of aligning Uzbekistan’s credit policies with international standards. The findings highlight significant opportunities to modernize the national credit mechanisms, enhance transparency, and strengthen the financial stability of Uzbekistan’s commercial banking sector through the integration of global best practices.

Key words: commercial banks, credit mechanism, international experience, Uzbekistan practice, credit risk, scoring systems, digital technologies, financial stability, big data, credit monitoring.

Аннотация: В данной научной работе рассматриваются передовые зарубежные практики в сфере кредитования коммерческими банками, а также возможности их адаптации и применения в банковской системе Узбекистана. Особое внимание уделено инструментам оценки кредитоспособности клиентов, управления кредитными рисками, формирования кредитного портфеля и мониторинга с использованием цифровых технологий, таких как системы скоринга на базе искусственного интеллекта, анализ больших данных и автоматизированные платформы кредитного контроля в режиме реального времени. На примере опыта таких стран, как США, Германия и Сингапур, обоснована актуальность внедрения международных стандартов в кредитную политику узбекских банков. Результаты исследования показывают наличие широких возможностей для модернизации кредитных механизмов, повышения прозрачности и надежности финансовой системы Узбекистана на основе интеграции зарубежного опыта.

Ключевые слова: коммерческие банки, механизм кредитования, зарубежный опыт, практика Узбекистана, кредитные риски, скоринг-системы, цифровые технологии, финансовая устойчивость, большие данные, мониторинг кредитов.



KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, xususan, real sektorni qo'llab-quvvatlash va investitsion faollikni kuchaytirishda tijorat banklarining kreditlash faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit resurslarining maqsadli, samarali va xavfsiz taqsimlanishi bank tizimining moliyaviy barqarorligiga va umumiy iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, banklar tomonidan qo'llanilayotgan kreditlash mexanizmlarining shakllanishi va takomillashuvi dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ko'plab rivojlangan davlatlarda kreditlash amaliyotiga zamonaviy texnologiyalar sun'iy intellekt, big data, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari keng joriy etilmoqda. Ushbu ilg'or xorijiy yondashuvlar kredit risklarini boshqarishda, qarz oluvchilarni baholashda va resurslarni samarali taqsimlashda muhim rol o'ynamoqda.

O'zbekiston tijorat banklari ham so'nggi yillarda kredit siyosatini isloh qilish, raqamli xizmatlarni kengaytirish va xalqaro standartlarga mos yondashuvlarni joriy etishga intilmoqda. Biroq mavjud tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim holatlarda kreditlash tizimining uslubiy jihatlari va baholash mezonlari zamonaviy xorijiy talablarga to'liq javob bermaydi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi xorijiy mamlakatlar tijorat banklari tajribasi asosida kreditlash mexanizmlarini o'rganish va ularni O'zbekiston amaliyotida qo'llashning ilmiy asoslarini aniqlash, shuningdek, zamonaviy va innovatsion yondashuvlarni milliy bank tizimiga moslashtirish imkoniyatlarini tahlil qilishdan ibora.

MAVZUGA OID ADABIYOLAR SHAHRI

Tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmining ilmiy asoslari va xorijiy yondashuvlarini o'rganish hozirgi davrda moliyaviy sektorning barqaror rivojlanishida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu sohada olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar kreditlash siyosatining samaradorligini oshirish, qarz oluvchilarni baholash mexanizmlarini takomillashtirish hamda risklarni boshqarishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy tadqiqotlar orasida Abdullayev Sh. (2020) tomonidan taqdim etilgan "Tijorat banklarida kredit siyosatini shakllantirishning nazariy asoslari" asarida kredit siyosatining bank resurslarining optimal taqsimlanishiga ta'siri keng yoritilgan. Muallif iqtisodiy tahlil va moliyaviy monitoring asosida kredit siyosatini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Rahmatova N. (2021) o'z ishida asimmetrik axborot, "moral hazard" va "adverse selection" nazariyalari asosida kredit risklarini baholash uslublarini tahlil qiladi. Uning fikricha, risklarni kamaytirish uchun banklar kredit portfelini diversifikatsiya qilish, avtomatlashtirilgan baholash tizimlarini joriy etish va qarz oluvchilar monitoringini kuchaytirishi lozim.

Raqamli texnologiyalar asosida kreditlash mexanizmini tahlil qilgan Toshpulatov D. (2022) esa "Banklarda raqamli kreditlash mexanizmlarini joriy etishning dolzarb masalalari" nomli ishida sun'iy intellekt, Big Data va real vaqtli monitoring tizimlari orqali qaror qabul qilish tezligi va aniqligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Amaliy jihatdan, Turonbank ATB faoliyati asosida o'tkazilgan tahliliy ishlarda kredit baholashda inson omiliga yuqori darajada bog'liqlik, monitoring jarayonining sustligi va muammoli kreditlar ulushi kabi muammolar aniqlangan. Bankda avtomatlashtirilgan scoring tizimlari joriy etilishi, qarz oluvchilarni segmentatsiyalash asosida riskni aniqlash mexanizmlarining ishlab chiqilayotgani ushbu yo'nalishda jiddiy qadamlar qo'yilayotganidan darak beradi.

Xalqaro adabiyotlarda esa kreditlash mexanizmining evolyutsiyasi va ilg'or uslublari chuqur tahlil etilgan. Berger A. va Udell G. (2006) kichik biznesni moliyalashtirishda axborot nomutanosibligi muammolarini yoritadi va kreditlashda maxsus yondashuvlar zarurligini asoslaydi. Boot A. va Thakor A. (2010) esa bank-mijoz munosabatlarining uzoq muddatli shakli kredit xavfini kamaytirishdagi rolini va ishonch asosidagi yondashuvlar samaradorligini tahlil qiladi.

Texnologik xavsizlik va moliyaviy barqarorlik nuqtai nazaridan Langfield S. (2019) tomonidan taqdim etilgan tadqiqotda raqamli kredit platformalari orqali qarz ajratishning afzalliklari va bir vaqtda yuzaga keladigan axborot xavfsizligi, etik risklar va noto'g'ri tahlil xatarlari ko'rsatib o'tilgan. Yana bir muhim yo'nalish – xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashuvdir. Hasanov S. (2023) tomonidan tayyorlangan "Kreditlashda IFRS 9 standartlarini qo'llash tajribasi" nomli maqolada kredit yo'qotish ehtimolini aniqlash va zaxira shakllantirish uslublari bo'yicha xalqaro yondashuvlar amaliyotga joriy etilishining afzalliklari tahlil qilingan. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tijorat banklarining kreditlash mexanizmini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Ilmiy asoslangan yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va xalqaro standartlarning uyg'unligi moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi, risklarni kamaytirish va raqobatbardosh bank tizimini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi globallashtirish sharoitida moliya sektorining raqobatbardoshligi, ayniqsa tijorat banklarining kredit siyosati va mexanizmlari samaradorligi yurt iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Kreditlash faoliyati tijorat banklarining asosiy moliyaviy vositachilik vazifasidir. U orqali real sektor subyektlari moliyaviy resurslar bilan ta'minlanadi, innovatsion loyihalar va kichik biznes qo'llab-quvvatlanadi, bandlik darajasi oshadi. Shu bois, zamonaviy talablar va xorijiy ilg'or tajribalar asosida kreditlash mexanizmini takomillashtirish O'zbekiston bank tizimi uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro amaliyot: ilg'or yondashuvlar

AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur, Germaniya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda tijorat banklari kredit siyosatida riskga asoslangan yondashuvni keng qo'llab kelmoqda. Xususan:

AQShda banklar kredit risklarini baholashda FICO scoring tizimidan foydalanadi. Bu tizim sun'iy intellekt va big data asosida mijozning moliyaviy intizomi, kredit tarixchasi, to'lov qobiliyati, daromad oqimi kabi ko'rsatkichlarga tayanadi.

Germaniyada kredit qarorlari baholashda Basel III talablariga asoslangan kapital yetariligi va likvidlik nazorati orqali risk darajasi aniqlanadi.

Singapur banklari esa mijozni segmentatsiyalash, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari, fintech kompaniyalari bilan integratsiya orqali kreditlash jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirishga erishgan.

Bu yondashuvlarning umumiy jihati kredit risklarini aniq prognoz qilish, qaror qabul qilishda inson omilini minimallashtirish va real vaqt rejimida monitoringni joriy etishdir.

O'zbekiston amaliyoti: hozirgi holat va muammolar

O'zbekiston bank tizimi so'nggi yillarda sezilarli islohotlarni boshdan kechirmoqda. Kreditlash hajmi ortmoqda, chakana va biznes kreditlar segmentlari kengaymoqda. Biroq mavjud muammolar quyidagilardan iborat:

Kredit baholash jarayonida inson omiliga yuqori darajada tayanish;

Kredit scoring tizimlarining sust rivojlanishi va real vaqt monitoring yo'qligi;

Kredit portfelining noyatarli diversifikatsiyasi va muayyan sohalarga haddan ziyod konsentratsiyalanishi;

Raqamli transformatsiya jarayonlarining banklararo teng taqsimlanmagani.

Shu bilan birga, ayrim tijorat banklari (masalan, Turonbank, Ipak Yo'li bank, Hamkorbank) o'z amaliyotlarida fintech bilan integratsiyalashuv, mijozlarni avtomatik tahlil qilish va masofaviy kreditlash xizmatlarini rivojlantirish orqali xorijiy tajribaga yaqinlashmoqda.

Integratsiya imkoniyatlari va tavsiyalar

O'zbekiston bank tizimida xorijiy tajribani amaliyotga joriy etish quyidagi yo'nalishlarda samarali bo'lishi mumkin:

AI va Big Data asosida kredit scoring tizimlarini joriy etish bu qaror qabul qilishda aniqlik va tezlikni oshiradi.

Basel III standartlariga mos risk boshqaruvi tizimini kuchaytirish kapital yetariligi, muammoli aktivlar ulushi va stress-test tizimlarini rivojlantirish zarur.

Fintech kompaniyalari bilan hamkorlik bu kreditlash xizmatlarini soddalashtiradi va mijozlar bilan aloqani kuchaytiradi.

Raqamli monitoring va ERP tizimlariga integratsiyalashgan hujjat aylanishi bu jarayonning shaffofligi va tezkorligini ta'minlaydi.

Xalqaro kredit reyting tizimlari va AML/CTF standartlarini joriy etish bu moliyaviy tizimga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Tijorat banklarining kreditlash mexanizmini takomillashtirishda xorij tajribasini o'rganish va moslashtirish, bu borada texnologik, nazariy va institutsional asoslarni mustahkamlash, O'zbekiston bank tizimini xalqaro moliyaviy muhitga integratsiyalashuvi uchun muhim shartdir. Ilg'or yondashuvlarni o'zlashtirish orqali banklar nafaqat moliyaviy resurslarni samarali taqsimlaydi, balki iqtisodiyotga xizmat qiluvchi ishonchli va barqaror moliyaviy vositachiga aylanadi.

1-jadval. Xorijiy davlatlar va O'zbekiston tijorat banklarida kreditlash mexanizmlarining taqqoslanishi¹

Davlat	Kreditlash yondashuvi	Texnologik vositalar	O'zbekiston uchun foydalanish imkoniyati
AQSh	Riskga asoslangan baholash, FICO tizimi	AI, scoring, Big Data, moliyaviy tahlillar	Scoring tizimlarini joriy etish
Germaniya	Basel III asosida risk nazorati	Stress-test, portfel baholash modullari	Kapital nazorati va riskni tahlil qilish metodlari
Singapur	Fintech bilan integratsiya, tezkor kreditlar	Mobil ilovalar, real vaqtlı kredit monitoringi	Fintech bilan hamkorlik, raqamli kreditlar
Janubiy Koreya	Avtomatik baholash va monitoring	ERP, AI, mijoz reyting tizimlari	ERP asosida hujjat aylanishi
O'zbekiston	Qo'lda baholash, tahlil sustligi	Cheklangan scoring, yarimavtomatik monitoring	Xalqaro amaliyotni bosqichma-bosqich integratsiya

Ushbu jadvalda AQSh, Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya kabi ilg'or moliya tizimiga ega davlatlarning tijorat banklari kreditlash mexanizmlaridagi yondashuvlari va texnologik vositalari O'zbekiston amaliyoti bilan taqqoslangan. Har bir tajribaning mahalliy tizimga moslashuvi imkoniyatlari ko'rsatilgan.

2-jadval. Xorijiy tajribaning O'zbekiston tijorat banklari faoliyatiga foydalari²

Xorijiy yondashuv	Tavsif	O'zbekiston amaliyotida qo'llash yo'li	Kutilayotgan foyda
Sun'iy intellekt asosida kredit scoring	AI algoritmlari asosida mijozni baholash tizimi	AI asosida avtomatlashtirilgan baholashni joriy etish	Subyektivlikni kamaytirish, qaror tezligi va aniqligini oshirish
Real vaqtlı monitoring	Kredit portfelini onlayn nazorat qilish tizimi	Banklarda raqamli monitoring paneli yaratish	Risklarni barvaqt aniqlash va xavflarni boshqarish
Fintech bilan integratsiya	Bank xizmatlarini texnologik kompaniyalar bilan uyg'unlashtirish	Fintech startaplari bilan hamkorlik dasturlarini yo'lga qo'yish	Innovatsion kredit xizmatlari, qulaylik va tezkorlik
Basel III standartlari	Kapital yetariligi va likvidlikni nazorat qilish metodologiyasi	Riskka asoslangan kapital nazoratini joriy etish	Bank barqarorligini oshirish, moliyaviy ishonchlilik
Digital loan platforms	To'liq raqamli kreditlash platformalari	Mobil ilovalar orqali kredit so'rovlarini avtomatlashtirish	Xarajatlarni kamaytirish, mijozlar bazasini kengaytirish

Jadvalda xorijiy mamlakatlar tijorat banklari tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or yondashuvlarning mohiyati, ularni O'zbekiston amaliyotiga moslashtirish yo'llari va bank tizimi uchun kutilayotgan foydalari yoritilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy-tahliliy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda O'zbekiston tijorat banklarining kreditlash mexanizmlari hali to'laqonli zamonaviy texnologik vositalar, xalqaro moliyaviy standartlar va ilg'or boshqaruv yondashuvlari bilan to'liq integratsiyalashmagan. Biroq, global tajribalar shuni isbotlaydiki, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, big data, real vaqtlı monitoring tizimlari va fintech bilan integratsiyalashgan xizmatlar bank kreditlash jarayonining har bir bosqichida aniqlik, shaffoflik va tezkorlikni ta'minlab, risklarni samarali boshqarish imkonini yaratadi.

AQSh, Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya kabi moliyaviy jihatdan ilg'or mamlakatlarda qo'llanilayotgan ilg'or amaliyotlar masalan, FICO scoring tizimi, Basel III standartlari, mobil ilovalar orqali kredit berish, fintech bilan kooperatsiya kredit qarorlarini ob'ektiv qabul qilish, muammoli kreditlarni barvaqt aniqlash va mijozlar ehtiyojiga moslashuvchan xizmatlar ko'rsatish imkonini beradi. Bu esa banklarning ishonchlilik va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

1 Muallif tomonidan xalqaro moliyaviy tashkilotlar, EBA, IMF va bank islohotlariga oid ochiq manbalar asosida tuzilgan tahliliy jadval (2024).

2 Manba: Muallif tomonidan xalqaro moliyaviy tashkilotlar (IMF, World Bank, EBA) materiallari va Turonbank ATB tahliliy asoslari bo'yicha tuzilgan (2024).



O'zbekiston tijorat banklarida ushbu xorijiy yondashuvlarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali quyidagi asosiy maqsadlarga erishish mumkin:

Kredit baholash jarayonini avtomatlashtirish va inson omiliga tayanishni kamaytirish;

Kredit portfellarini segmentatsiya qilish orqali riskni diversifikatsiyalash;

Real vaqt rejimida kredit monitoringini yo'lga qo'yish orqali barvaqt aniqlash va oldini olish mexanizmlarini kuchaytirish;

Fintech texnologiyalarni jalb etish orqali mijozlar bazasini kengaytirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;

Xalqaro standartlar (IFRS 9, Basel III) asosida risk nazoratini kuchaytirish.

Shuningdek, tahliliy jadvallarda yoritilgan muammolar va taklif etilgan yechimlar shuni anglatadiki, hozirgi bosqichda O'zbekiston bank tizimida transformatsiya jarayonini tezlashtirish, kredit risklarini strategik darajada boshqarish, kapital yetariligi ta'minlash va mijozlar bilan barqaror aloqalarni yo'lga qo'yish eng dolzarb vazifalardan biridir.

Umuman olganda, xorijiy tajribaning moslashuvchan tarzda o'zlashtirilishi O'zbekiston tijorat banklarining ichki kreditlash siyosatini sifat jihatidan yangilaydi, ularning moliyaviy vositachilik rolini kuchaytiradi hamda barqaror, raqobatbardosh va mijozga yo'naltirilgan bank tizimini shakllantirishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Комилов, У.К. (2022). Tijorat banklari faoliyatini boshqarish. Toshkent: TDIU nashriyoti.– Ushbu darslikda tijorat banklarining kredit siyosatini tashkil etishdagi nazariy asoslar, ichki boshqaruv tamoyillari va moliyaviy qarorlar tizimi yoritilgan.
2. Рахматова, Н. (2021). Kredit risklarini boshqarishning ilmiy asoslari. Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, №3, 17–22.– Asimmetrik axborot, "moral hazard" va boshqa zamonaviy nazariyalarga asoslangan kredit risklarini baholash metodikasi tahlil qilinadi.
3. Toshpulatov, D. (2022). Banklarda raqamli kreditlash mexanizmlarini joriy etishning dolzarb masalalari. Iqtisodiyot va innovatsiyalar, №4(29), 34–39.– Raqamli texnologiyalarning bank kredit amaliyotiga integratsiyasi bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.
4. Turonbank ATB (2024). Kredit portfeli va moliyaviy monitoring bo'yicha hisobotlar (2023-yil yakuni). Rasmiy sayt: www.turonbank.uz– Amaliy tadqiqotlar uchun asos bo'luvchi rasmiy statistik ma'lumotlar manbai sifatida xizmat qiladi.
5. Hasanov, S. (2023). Kreditlashda IFRS 9 standartlarini qo'llash tajribasi. Moliyaviy boshqaruv jurnali, №2, 26–31.– Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida kredit yo'qotish ehtimolini baholash tajribasi keltirilgan.
6. Boot, A.W., & Thakor, A.V. (2010). Relationship Banking and Risk Management. Journal of Financial Intermediation, 19(3), 439–456.– Bank-mijoz munosabatlarining uzoq muddatli tuzilmasi kredit xavfini boshqarishdagi o'rniga e'tibor qaratiladi.
7. Berger, A.N., & Udell, G.F. (2006). The Economics of Small Business Finance: The Roles of Private Equity and Debt Markets. Journal of Banking & Finance, 22(6), 613–673.– Kichik biznesga kredit ajratishda yuzaga keladigan axborot nomutanosibligi va ularni yengish usullari tahlil qilingan.
8. Langfield, S. (2019). Digital Lending Platforms and Financial Stability. Bank of England Working Paper No. 821.– Raqamli kreditlash platformalarining xavfsizlik va barqarorlikka ta'siri ko'rib chiqilgan.
9. European Banking Authority (2023). Guidelines on Loan Origination and Monitoring. EBA Publications.– Yevropa Ittifoqida kredit ajratish va monitoring bo'yicha amaliy ko'rsatmalar tizimi.
10. World Bank (2023). Bank Credit Risk Assessment and Management Tools in Emerging Markets. Washington, D.C.: World Bank Group.– Rivojlanayotgan bozorlar sharoitida bank kredit risklarini baholash vositalari tahlili.
11. International Monetary Fund (2022). Credit Growth, Risk, and Resilience: Policy Options for Banking Stability. IMF Policy Paper.– Kredit o'sishi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha siyosiy tavsiyalar.
12. Karimova, D. (2021). Kredit siyosatini optimallashtirishda axborot texnologiyalarining o'rnini. Ilm va amaliyot, №1, 45–50.– Kredit siyosatini raqamli transformatsiya asosida qayta tashkil etish imkoniyatlari yoritiladi.
13. Norova, N.N. (2024). Sun'iy intellekt va big data asosida kredit baholash metodlari. Iqtisodiy tadqiqotlar, №1, 18–24.– AI va katta ma'lumotlar tahliliga asoslangan zamonaviy kredit baholash algoritmlari taklif etiladi.
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023). Tijorat banklarida risklarni baholash mezonlari bo'yicha tavsiyalar. Toshkent: MB axborot xizmati.– Milliy bank sektorida risk menejmentining amaliy yondashuvlarini belgilovchi me'yoriy hujjat.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2022). Bank-moliya tizimini raqamlashtirish konsepsiyasi (2022–2026).– O'zbekistonda moliya sektori raqamli transformatsiyasining asosiy yo'nalishlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>